

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**DORIVOR O'SIMLIKLAR VA BOTANIKA KAFEDRASI**



***Biologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlik  
dissertatsiyasini tayyorlash va himoya etishga  
oid metodik ko'rsatma***

***Qarshiboev H.Q. Biologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya etishga oid metodik ko'rsatma. – Guliston, 2025. –16 b.***

Metodik ko'rsatma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 3 dekabr 487-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashning namunaviy tartibi" hamda "70510101- biologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan malaka talablari" asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024 yil 13dekabr 836-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi tug'risidagi Nizom" talablari e'tiborga olingan holda magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilishga oid masalalar yoritilgan.

Ushbu metodik ko'rsatma biologiya mutaxassisligi bitiruvchi kurs talabalariga, ularga rahbarlik qilayotgan professor-o'qituvchilar va mutaxassislarga mo'ljallangan.

Metodik ko'rsatma Guliston davlat universiteti O'quv-metodik kengashi tomonidan (8-bayonnoma 26.02.2020 yil) nashrga tavsiya qilingan.

Taqrizchilar: Tuxtaev B. – ToshDAU professori, b.f.d.  
Abduraimov A.- GulDu dotsenti, b.f.f.d.

## MUNDARIJA

Kirish .....	4
1. Magistrlik ishining maqsadi va vazifalari .....	4
2. Magistrlik dissertatsiya mavzusini tasdiqlash.....	5
3. Magistrlik dissertatsiya ishiga rahbarlik qilish.....	5
4. Magistrlik dissertatsiya ishini bajarish.....	5
5. Magistrlik dissertatsiya ishining tuzilishi.....	5
5.1.Kirish qismi.....	6
5.2.Tanlangan ob'ektlar va tadqiqot metodlari.....	6
5.3. Olingan natijalar va ularning taxlili.....	6
5.4.Xulosa va tavsiyalar.....	7
5.5.Matnda adabiyotlardan foydalanganlik belgilarini keltirish.....	7
5.6.Adabiyotlar ro'yxatini tuzish.....	7
5.7.Jadval, rasm va chizmalarga bo'lgan talablar.....	8
5.8.Mundarijani tuzish.....	9
6. DAKga taqdim etiladigan asosiy hujjatlar.....	9
7. Foydalanilgan adabiyotlar.....	10
8. Ilovalar.....	11

## **Kirish**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998 yil 31 dekabr 362-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiya to'g'risidagi Nizom" hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 23-dekabrda 472-son "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari tug'risida" gi buyrug'i bilan o'quv jarayoniga kiritilgan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024 yil 13dekabr 836-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi tug'risidagi Nizom"ga muvofiq bitiruvchilar yakuniy attestatsiyasi bir yoki bir necha attestatsiyalardan iborat bo'lishi ko'rsatilib, magistratura bosqichi bitiruvchi talabasi magistrlik dissertatsiyasini himoya qilishi qayd etilgan. Magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan umumiy talablar maxsus "Oliy o'quv yurtlarida magistrlik dissertatsiyasini bajarishga qo'yiladigan talablar" da keltirilgan.

Ushbu uslubiy ko'rsatma amaldagi Nizomlar hamda 70510100-biologiya bo'yicha magistrning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan malaka talablari (Toshkent, 2022) asosida ishlab chiqilgan bo'lib, undan asosiy maqsad bitiruvchilarni dissertatsiyani bajarishda rioya qilishi kerak bo'lgan qoidalar va me'yorlar bilan tanishtirishdir.

Uslubiy ko'rsatmada biologiya fanlariga taalluqli magistrlik dissertatsiya tuzilishi, adabiyotlar tahlili, ishda foydalanilgan adabiyotlarni qayd etish tartiblari, jadval va chizmalarga qo'yiladigan asosiy talablar, ishni rasmiylashtirish tartiblari keltirilgan.

### **I. Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari**

Dissertatsiya ishini tayyorlash va himoya qilish magistraturaning yakuniy bosqichida amalga oshirilib, u ilmiy-uslubiy jihatdan biologiya fanining hozirgi zamon taraqqiyotiga muvofiq qelishi va dolzarb masalalarni hal qilishga bag'ishlan bo'lib, muayyan bir vazifani hal qilishga va ilmiy asoslangan echimini topishga qaratilgan bo'lishi kerak.

## **Dissertatsiya ishini bajarishdan maqsad:**

- Talabaning magistratura bosqichida olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish, olgan bilimlarini muayyan ilmiy, pedagogik, ishlab chiqarish vazifalarni hal qilishda qo'llashga erishish;
- biror muammoni to'la xal qilishga o'rgatish, uni hal qilishda ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirish;
- talabalarni mustaqil holda ishlay olishga tayyorlashdir.

## **2. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini tasdiqlash**

Dissertatsiya ishi mavzulari mutaxassis chiqaruvchi kafedralar tomonidan kadrlar iste'molchilari takliflarini hisobga olgan holda belgilanadi va universitet ilmiy kengashida tasdiqlanadi.

Ayrim hollarda Dissertatsiya ishi mavzusi talaba o'qishi uchun shartnoma pulini to'layotgan buyurtmachi taklif etgan mavzular olinadi. Bunday holatlarda mavzular ixtisoslik fanlari doirasidan chetga chiqib ketmasligi lozim.

Dissertatsiya ishi mavzusi tanlangandan keyin kafedra tomonidan talabaga rahbar birlashtiriladi. Kafedra taqdimnomasiga asosan magistrlik Dissertatsiya ishi mavzusi va uning rahbari rektor buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

## **3. Magistrlik dissertatsiyasi ishiga rahbarlik qilish**

Dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar mutaxassislik kafedrasida tavsiyasiga ko'ra universitet professor-o'qituvchilari yoki boshqa muassasalarda ish olib borayotgan etuk mutaxassislardan tayinlanadi.

### **Ilmiy rahbar:**

- Magistr bilan hamkorlikda shaxsiy ish rejasini ishlab chiqadi.
- Dissertatsiya ishi bo'yicha topshiriq beradi.
- Ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi.
- Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati va boshqa axborot resurslarini tavsiya qiladi.

- dissertatsiya ishi ish bajarilishini nazorat qiladi va tegishli tavsiyalar berib boradi.

Dissertatsiya ishini o'z vaqtida to'la bajarilishi va sifatli qilib tayyorlanishi ko'p jihatdan ishni bajarish rejasining to'g'ri tuzilganiga bog'liqdir.

Dissertatsiya ishini bajarish rejasida amalga oshiriladigan ishlar bosqichma-bosqich ko'rsatilib (adabiyotlar bilan ishlash, tajribalar o'tkazish, ma'lumotlarni yig'ish, hisob-kitob ishlari, qo'lyozma variantini qoralash, chizma va rasmlarni tayyorlash, oqqa ko'chirish va h.q), ularni bajarish muddatlari aniq ko'rsatiladi.

#### **4. Magistrlik dissertatsiya ishini bajarish**

**Biologiya mutaxassisligida dissertatsiya ishini bajarish** jarayoni odatda **quyidagi bosqichlarni** o'z ichiga oladi:

- adabiyotlar bilan ishlash;
- tadqiqot metodlarini tanlash;
- kerakli tajriba va tadqiqotlarni o'tkazish, kuzatish va ma'lumotlar yig'ish;
- olingan natijalar va to'plangan ma'lumotlarni taxlil qilish;
- xulosa va takliflar ishlab chiqish;
- dissertatsiya ishi qoralama variantni yozish.

Dissertatsiya ishi tasdiqlangan reja asosida talaba tomonidan shaxsan bajariladi. Ish rahbari unga dissertatsiya ishini bajarish jarayonida ilmiy-metodik yordam berib boradi.

Dissertatsiya ishi universitetning maxsus ajratilgan xonalarida, ilmiy tekshirish muassasalari laboratoriyalarida va bevosita ishlab chiqarish muassasalarida bajariladi. Ishning bajarilishi ish rahbari va kafedra mudiri tomonidan doimo nazorat qilib boriladi.

Ma'lumki, har qanday ilmiy tadqiqot sohaga tegishli bo'lgan adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi. Talaba dastlab tavsiya qilingan sohaga oid adabiyotlarni sinchiklab o'rganadi, kerakli joylarini yozib boradi. Ushbu ishlar amalga oshgandan so'ng dissertatsiya ishi mavzusiga tegishli yangi ma'lumotlarni shu sohaga oid ilmiy jurnallardan va internetdan izlab topadi,

ularni o'rganadi va taxlil qiladi. Dissertatsiya ishining tadqiqot usullarini tanlash qo'yilayotgan vazifalardan kelib chiqib, rahbar bilan maslahatlashib tanlanadi. Bu usullar bir nechta bo'lishi mumkin. Shundan so'ng bu usullar yordamida tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Olingan natijalar maxsus daftarlarga qayd qilib boriladi.

## **5. Magistrlik dissertatsiya ishi tuzilishi**

Guliston DU o'quv-metodik kengashining 29.08.2018 yilgi 1-yig'ilishi bayonnomasiga muvofiq magistrlik dissertatsiyasi ishining hajmi biologiya ta'lim yo'nalishida 60 betdan kam bo'lmasligi ko'rsatilgan.

Dissertatsiya ishida quyidagi ketma-ketlikda materiallarni joylashtirish talab qilinadi:

- jild (titul varag'i);
- mundarija;
- kirish;

Asosiy qism boblari:

- tanlangan obektlar (qo'yilgan masala va muammolar) va tadqiqot metodlari;
- olingan natijalar va ularning muhokamasi;
- xulosa va tavsiyalar;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
- ilovalar

Dissertatsiya ishilarida rasmlar, chizmalar va statistik ma'lumotlar bo'lsa, u ilova qismida keltiriladi. Jild (titul) varag'i dissertatsiya ishining birinchi beti bo'lib unda Vazirlik, Oliy ta'lim muassasasi nomi, magistrning familiyasi, ismi va sharifi, magistrlik dissertatsiya ishi mavzusi, mutaxassislik shifri va nomi, ilmiy rahbarining familiyasi, ismi va sharifi bosh harflari hamda ilmiy unvoni va darajasi keltiriladi (1-ilova).

Dissertatsiya ishi A4 (21 x 29 mm) li oq qog'ozga chap tomonda 30 mm, o'ng tomondan 15 mm, teppa va pastki tomondan 25 mm qoldirilgan xolda 14 shriftda 1,5 intervalda yoziladi.

Dissertatsiya ishida xar bir bob (qism), jumladan kirish va xulosa qismlari, ilovalar yangi sahifadan boshlanadi. Bobning nomi va matn orasi yaqqol ajralib turishi kerak. Bobdagi sarlovhalar bobning tartib raqami bilan boshlanib, unda so'zlarning bo'linishiga, bo'g'in ko'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sahifa tartib raqami sahifaning yuqori o'rta qismida keltiriladi. Dissertatsiya ishida keltirilgan hamma boblar va qismlar, shuningdek ilovalar ham sahifalanadi. Jild varag'i birinchi bet sanaladi, unga tartib raqami qo'yilmaydi.

### **5.1. Kirish qismi**

Kirish qismida talaba o'rganayotgan masalaning dolzarbligi va uning ahamiyatini asoslashi kerak. Buning uchun quyidagi ketma-ketlikda masalalarini yoritishi lozim bo'ladi:

- mavzuning dolzarbligi;
- ishning maqsadi va vazifalari;
- ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar;
- ishning amaliy ahamiyati;
- dissertatsiya ishining tuzilishi to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar keltiriladi.

### **5.2. Tanlangan ob'ektlar va tadqiqot metodlari**

Ushbu bobda tadqiqot olib borilayotgan ob'ektning qisqacha umumiy tavsifi beriladi va tadqiqot metodlari bayon etiladi. Ishni bajarishda foydalanilgan asbob-uskunalar, qurilmalar, ishlab-chiqarish tizimlari, to'plangan materiallar, ma'lumotlar va ko'rsatkichlarni jamlashda qo'llanilgan uslublar keltiriladi.

Bu bobda shuningdek mavzuga doir qilingan ishlar, e'lon qilingan adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar, ilmiy maqolalar, patentlar va boshqa manbalardan to'plangan ma'lumotlar keltiriladi.

### **5.3. Olingan natijalar va ularning taxlili**

Odatda bu qism kamida 2-3 ta bobdan iborat bo'lib, olingan tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi yoritiladi. Talaba tomonidan to'plangan materiallar tahlil qilinadi, olingan natijalar, yangiliklar ilmiy jihatdan asoslanadi



va adabiyotlarda oldin e'lon qilingan manbalar bilan taqqoslanadi. Ayniqsa, olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi yaqqol ko'rsatilishi zarurdir. Agar talaba mavzu bo'yicha olgan natijalarni tanqidiy baholay olsa, dissertatsiya ishining qiymati yanada oshadi. Asosiy qism boblarida rasmlar, chizmalar va jadvallar matn ichida ham keltirilishi mumkin.

#### **5.4. Xulosa va tavsiyalar**

Dissertatsiya ishining xulosa qismida ish bo'yicha chiqarilgan xulosa va tavsiyalar yoritiladi. Xulosa va tavsiyalar aniq, lo'nda va tushunarli qilib bayon qilinishi kerak.

Davlat attestatsiya komissiyasi dissertatsiya ishini baholayotganda uning xulosa qismida ishlab chiqarishga aniq amaliy taklif va tavsiyalar berganligiga hisobga oladi.

#### **5.5. Matnda adabiyotlardan foydalanilganlik belgilarini keltirish**

Dissertatsiya ishini yozish jarayonida bitiruvchi ilmiy adabiyotlarida keltirilgan boshqa ma'lumotlarni keltirishi mumkin. Bunday hollarda matnda ushbu adabiyotlardan foydalanganlik belgisi qo'llaniladi (2-ilova).

#### **5.6. Adabiyotlar ro'yxatini tuzish**

Ishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati dissertatsiya ishining xulosa qismidan keyin keltiriladi. Ro'yxatga faqat ishni yozish jarayonida talaba tomonidan foydalanilgan adabiyotlar, maqolalar, tezislar, avtoreferatlar, deponirlangan ilmiy ishlar va patentlar hamda internet saytlari kiritiladi.

Amaldagi "Hujjatlarni bibliografik ro'yxatga olish" davlat standartiga muvofiq ilmiy ishlarda, jumladan dissertatsiya ishilar va magistrlik dissertatsiyalarda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida quyidagilar keltiriladi:

- Kitob va monografiyalar uchun:
  - Muallif (lar)ning familiyasi, ismi va sharifi bosh harflari, kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlari.

Agar mualliflar 2 ta bo'lsa, ularning familiyasi keltiriladi, 3 ta va undan ortiq bo'lsa, faqat 1-muallifning familiyasi keltirilib “va boshqalar” degan qo'shimcha kiritiladi (3-ilova).

- To'plamdagi maqolalar va tezislar uchun :
  - Muallif (lar)ning familiyasi, ismi va otasining ismi bosh harflari, maqola nomi, to'plamning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlari. To'plamdagi maqola nomi to'plam nomidan // belgisi bilan ajratiladi (3-ilova).
- Jurnallardagi maqolalar uchun:
  - Muallifning familiyasi, maqola nomi, jurnal nomi, yili, betlari. Maqola nomi ham jurnal nomidan // belgisi bilan ajratiladi (3-ilova).
- Ensiklopediyalar, floralar, aniqlagichlar uchun:
  - Kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, yili, qismi (tom), betlari.
- Deponirlangan ilmiy ishlar uchun:
  - Muallifning familiyasi, ilmiy ish nomi, deponirlangan joyi, shahar, yili, betlari, tartib raqami.

Dissertatsiya ishida foydalanilgan manbalar adabiyotlar ro'yxatida alfavit bo'yicha joylashtiriladi. Agar talaba ayrim ma'lumotlarni internetdan olgan bo'lsa, muallif va ishning nomi, keyin Web sayti ko'rsatildi (3-ilova).

Talaba tomonidan ishda keltirilgan xorijiy adabiyotlar ro'yxatining ohirida joylashtiriladi. Chet tilidagi kitoblar, jurnaldagi maqolalar va to'plamdagi tezislarni yozish namunalari 3-ilovada keltirilmoqda.

### **5.8. Jadval, rasm va chizmalarga bo'lgan talablar**

Odatda biologiya soxasida bajarilgan dissertatsiya ishida ko'plab jadval, rasm va chizmalar matn ichida yoki ilovada keltirilib, ular ishning mohiyatini to'la ochish uchun xizmat qiladi. Amaldagi Nizomlarda chizma va rasmlarning o'lchami, shrifti va ularga beriladigan izohlar “davlat standartlariga qat'iy muvofiq kelishi zarur” deb qayd etilgan.

Shu sababli quyida hozirgi kunda magistrlik dissertatsiyalarida jadval hamda chizmalarni amal qilinishi zarur bo'lgan talablar keltirilmoqda :

- Sonlar bilan ifodalangan ma'lumotlar dissertatsiya ishida jadval ko'rinishida beriladi. Jadvalning berilishi va to'ldirilishi namunasi 4-ildovada keltirilmoqda. Har qaysi jadval alohida nomlanib, jadval nomi bosh harf bilan boshlanadi. Jadval ustunlari ichidagi so'zlar ham bosh harf bilan, undan keyingi qatordagilari esa oddiy harf bilan boshlanadi. Qator oralig'i 8 mm dan kam bo'lmasligi talab qilinadi.

Agar ustunlari soni ko'p bo'lib, keyingi betga o'tsa, ustunlardagi so'zlar yozilishi shu tartibda davom ettiriladi.

Jadvalning chap tomonida joylashgan ustundagi so'zlar ham bosh harflar bilan boshlanadi. Jadval arab sonlari bilan qayd etiladi (1-jadval, 2-.....). Agar jadval 1 ta bo'lsa, faqat jadval so'zi yoziladi. Jadval boshqa betda davom ettirilsa "1-jadval davomi" so'zi keltiriladi. Ayrim hollarda har bir bo'lim (bob) jadvallarini alohida qayd etishi mumkin, ya'ni "1.2-jadval, 2.4-jadval" – "birinchi bo'lim ikkinchi sonli jadval, ikkinchi bob to'rtinchi sonli jadval" (4-ildova).

- Rasmlar o'lchami 9x12, 12x15 smlarda bo'lishi talab etiladi. Rasmlar rangli bo'lishi lozim. Rasmlarda keltirilayotgan ob'ekt aniq ko'rinishi kerak. Rasmlar ham bo'lim bo'yicha arab raqamlari bilan qayd etiladi (1.1-rasm, 1.2- ...). Rasmlar ham nomlanadi (5-ildova). Rasm biror manbadan olingan bo'lsa, manba ko'rsatilishi zarur hisoblanadi.

- Chizmalarning o'lchami, shrifti davlat standartlariga mos kelishi talab etiladi. Chizmalar ham bob bo'yicha arab raqamlari bilan rasm deb qayd qilinadi (1.3-rasm, 1.4-...).

Jadval, rasm va chizmalar hech qanday bo'yashlarsiz beriladi. Ulardagi ma'lumotlar keltirilishi kerak bo'lgan hollarda "1.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1.2-rasmda keltirilmoqda" kabi iboralar ishlatiladi yoki tegishli ma'lumot matnda berilgandan keyin qavs ichida rasm yoki jadval tartib raqami ko'rsatiladi (1.1-jadval yoki rasm).

## **5.8. Mundarijani tuzish**

Mundarija dissertatsiya ishini jild varag'idan keyin joylashtirilib, unda hamma bo'limlar (kirish, asosiy boblar, xulosa qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar)ning to'liq nomlari sahifalar ko'rsatilgan holda tartib bilan keltiriladi. Mundarijada qismlar o'rni almashtirilishi, nomlanishini o'zgartirilishi yoki qisqartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

## **6. DAKga taqdim etiladigan asosiy hujjatlar**

Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladigan **asosiy hujjatlar** quyidagilar hisoblanadi:

- magistrlik dissertatsiyasi (jildlangan holda);
- ilmiy rahbar xulosasi;
- kafedra majlisi bayonnomasidan ko'chirma;
- tashqi taqriz.

Ilmiy rahbar dissertatsiya ishi ni ko'rib chiqib, o'zining yozma xulosasini beradi. Rahbar dissertatsiya ishini o'z xulosasi bilan kafedra mudiriga taqdim etadi. Kafedra mudiri dissertatsiya ishini himoyaga kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi va dissertatsiya rasmiy tashqi taqrizga yuboriladi.

Taqrizchi boshqa oliygohlarning turdosh kafedra professor-o'qituvchilaridan, ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlaridan va ishlab chiqarishdagi sohaning yetuk mutaxassislaridan tayinlanadi.

Taqrizlar imzolangan va muassasa muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi shart hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024 yil 13dekabr 836-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi tug'risidagi Nizom"ga muvofiq bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi (BMI va dissertatsiya himoyasi) ish beruvchi tashkilot va korxonalarda o'tkazilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2007 yil 29 dekabrda 269 – sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Magistra tug'risida” gi Nizom.
2. Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar. – Toshkent, 2001. – 138 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 3 dekabr 487-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashning namunaviy tartibi”
4. Qarshiboev H.Q. Magistrlik dissertatsiya ishini bajarish va himoya qilishga doir uslubiy ko'rsatmalar. – Guliston, 2003. -35 b.
5. Dissertatsiya va avtoreferatni rasmiylashtirish qoidalari. –Toshkent, 2017. – 18 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024 yil 13dekabr 836-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi tug'risidagi Nizom”.
7. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 23-dekabrda 472-son “Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari tug'risida” gi buyrug'i,

*1-ilova*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*Qo'l yozma huquqida  
UDK*

**Sultonova Hilola Ravshanovna**

**“GOJI O'SIMLIGI BIOEKOLOGIYASI”  
(70510101- Biologiya)**

Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya

Rahbar: Biologiya fanlari doktori,  
prof. Karshiboev H.Q.

Guliston-2025

### **Matnda adabiyotlardan foydalanganlik belgilarini keltirish**

Dissertatsiya ishida adabiyotlardan foydalanganlik belgisi adabiyotlar ro'yxatidagi tartib raqamini qavs [ ] ichida keltirish bilan belgilanadi.

#### **Namuna :**

Keyingi yillarda antropogen omillar ta'sirida O'zbekistonda 20 mln. ga yaqin tabiiy yaylovzorlar inqirozga uchrab, ularning mahsuldorligi kamayib bormoqda [9]. Buning oldini olish uchun mutaxassislar tomonidan turli taklif va tavsiyalar berilmoqda [2, 6, 7 ].

### **Adabiyotlar ro'yxatini tuzish**

#### **1. Kitob va monografilar :**

Qarshiboev H.Q. Antekologiya. – Guliston: Ziyο.- 2018. - 91 b.

Karshibaev X.K., Amanova M.M. Mirzacho'lda istiqbolli dorivor goji turkumi vakillarining introduktsiyasi.-Toshkent: Metodist nashriyoti, 2023.- 124 b.

#### **2. Jurnallardagi maqolalar :**

Ashurmetov O.A., Qarshiboev H.Q. Osobennosti prorastaniya semyan nekotorix mnogoletnix bobovix rasteniy aridnoy zoni // Uzb. biol. jurn., 2002. № 2. - S. 54-59.

Karshibaev X.K. Astragallarning hayotiy strategiyasi// Universitet axborotnomasi, 2024. N 1.- B. 37-43.

#### **3. Avtoreferatlar :**

Dosmetov A.T. Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida tarqalgan azollalarning bioekologik xususiyatlari : Biol. fan. nomzodi..... diss. avtoreferati .- Toshkent, 2003. - 23 b.

#### **4. Entsiklopediya va floralar :**

O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. - T. : O'zME, 2000. 1-jild. – 93- b.

Flora Uzbekistana. Tom 1. - Tashkent: Izdat. Fan, 2019.- 267 s.

#### **5. Internetdan olingan adabiyotlar :**

Khan M.A. Liggt, salinity and temprature efferts on the seed germination of parennal grassis // [www.amjbot.org](http://www.amjbot.org). 2023. № 110. - P. 131-134.

## 6. Xorijiy adabiyotlar :

Armstrong K.K. The seed of plants. – Cambridge : Univ. Press., 1995.- 504 p.

Corner E. L.H. The legumes seed // Phytomorphology, 1998. V. 1. № 2. - P. 117-150.

4-ilova

### Jadvalning berilish namunalari

Jadval bo'lim bo'yicha arab raqami bilan belgilanadi. Jadval tepasida jadval nomi keltiriladi.

1.1-jadval.

### Burchoqdoshlar oilasi turlarining urug' sifati

O'simlik turi	Urug' sifati, %		
	tozaligi	hasharotlar bilan zararlanganligi	unuvchanligi
<i>M. albus</i>	97,4	3,5	99,5
<i>M. sativa</i>	99,1	1,9	97,0
.....			

5-ilova

### Rasmlarni berilish namunalari

Rasmlar arab raqami bilan belgilanadi va rasm tagida keltiriladi.



1.1-rasm. Chayono't o'simligini tukchalari.